ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

O‘QUVCHI-QIZLARNING AXLOQIY TARBIYASI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Radjabov Akmal Abduxaliqovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi assistenti
Hakimova Manzura
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchi-qizlarning axloqiy tarbiyasi pedagogik-psixologik muammo sifatida tahlil qilinadi. O‘quvchi-qizlarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ularning sabablari va yechimlari yoritilgan. Tadqiqotda axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari, o‘quvchi-qizlarning ruhiy rivojlanishi bilan bog‘liq jihatlar hamda pedagog va psixologlarning roli atroflicha ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan axloqiy tarbiya usullari va ularning samaradorligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *axloqiy tarbiya, o‘quvchi-qizlar, pedagogik muammo, psixologik muammo, ruhiy rivojlanish, ta’lim muassasasi, tarbiya usullari.*

Аннотация: *В данной статье моральное воспитание девочек-учениц рассматривается как педагогико-психологическая проблема. Освещены возникающие в процессе формирования морального воспитания проблемы, их причины и пути решения. В исследовании всесторонне рассмотрены теоретические основы морального воспитания, аспекты психического развития девочек-учениц, а также роль педагогов и психологов. Кроме того, проанализированы методы морального воспитания, применяемые в образовательных учреждениях, и их эффективность.*

Ключевые слова: *моральное воспитание, девочки-ученицы, педагогическая проблема, психологическая проблема, психическое развитие, образовательное учреждение, методы воспитания.*

Annotation: *This article analyzes the moral education of schoolgirls as a pedagogical and psychological issue. It highlights the problems arising in the process of forming moral education, their causes, and solutions. The research thoroughly examines the theoretical foundations of moral education, aspects related to the psychological development of schoolgirls, and the role of teachers and psychologists. In addition, the methods of moral education implemented in educational institutions and their effectiveness are analyzed.*

Keywords: *moral education, schoolgirls, pedagogical issue, psychological issue, psychological development, educational institution, educational methods.*

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda ayrim o’quvchi-qizlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda. Shuning uchun o’quvchi-qizlarning ta’lim-tarbiyasiga pedagogik-psixologik tomondan yondashib ushbu jihatlarni o’rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Axloqiy fazilatlar o’quvchi-yoshlarning ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda [1].

Mamlakatimizda xotin qizlarga har tomonlama imkoniyatlar yaratish, ularni jamiyatda o’zining munosib o’rinlarini belgilashlarida yaqinda yordam ko’rsatilmoqda. Ayniqsa, o’sib kelayotgan yosh avlod ya’ni, o’quvchi-qizlarimizning kamoloti va odob-axloqini yoshlikdan boshlab tarkib toptirish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlar doirasida bu masalalar qonunchilik hujjatlarimizda ham alohida e’tirof etilgan. Xususan, “Uzluksiz ma`naviy tarbiya konsepsiyasi”da qiz bolalarda egallanishi lozim bo‘lgan quyidagi axloqiy fazilatlarga urg’u berilgan (1-rasm):

QIZ BOLALARDAGI AXLOQIY FAZILATLAR			
1.	ona Vatanga muhabbat	**12.**	mehribonlik
2.	milliy g‘oyaga sadoqat	**13.**	rahmdillik
3.	mehnatsevarlik	**14.**	kamtarlik
4.	jonkuyarlik	**15.**	ziyraklik
5.	oilaparvarlik	**16.**	mehmondo‘stlik
6.	ibo	**17.**	bolajonlik
7.	hayo	**18.**	murosalilik
8.	nafosat	**19.**	orastalik
9.	did-farosat	**20.**	saranjomlik
10.	qanoat	**21.**	xushmuomalalik
11.	vafodorlik	**22.**	pazandalik va h.k.lar

1-rasm. Qiz bolalardagi axloqiy fazilatlar.

O‘quvchi-qizlarning axloqiy tarbiyasi bilan shug’ullanish har doim muhim masala bo’lib kelgan. Azaldan xalqimiz qiz bolalarning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan, oilalarda onalar tomonidan pokiza, oqil, dono, kata hayotiy tajribaga ega ayollarni o’z qizlariga enaga etib tayinlagan va ularga qizlar tarbiyasini ishonib topshirganlar. Oila boshliqlari bo’lgan erkaklar oilaning moddiy ta’minotini yaratish bilan shug’ullangan. Shu sababdan ona farzandlarning kamoloti uchun javobgar, mas’ul shaxs hisoblanadi. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etishda qaizlarda ana shu mas’uliyatni vazifani bajarish, shuningdek, ro‘zg’or hamda oila xo’jalaigini yuritish, oilaning boshqa a’zolariga nisbatan g’amxo’rlik ko’rsatish borasidagi muayyan ko’nikma va malakalarni shakllantirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratganlar [2].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Xalqimiz oilada qizlarning axloqiy tarbiyasini tashkil etish borasida asriy tajribaga ega. Mazkur tajriba mazmuni milliy mentalitetimizga xos bo'lgan odob, axloqiy fazilatlar, hayo, pokizalik hissi bilan yo'g'rilgan pand-nasihatlar, mutafakkirlarning qarashlari, ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalaridan tashkil topgan. Uzoq yillar davomida oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishda, qizlarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ana shu tajribaga tayanib ish ko'rmoqda.

Ilm-fan, texnika va jamiyat taraqqiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish ishi mazmuniga nisbatan yangidan-yangi talablarni qo'ymoqda. Zero, ayollarning ijtimoiy mavqeini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ta'minlash, tafakkur doirasi va dunyoqarashiuni kengaytirish muammolari ijtimoiy munosabatlarning chuqurlashuvi va murakkablashuvi sharoitida har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega. Manfaatlar to'qnashuvi, bashariyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlarga nisbatan ziddiyatli yondashuvi, axborotlarning tezkor almashinuvi sharoitida oila tarbiyasini yo'lga qo'yishda samaradorlikka erishish, qizlarda erkin, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish milliy o'zlikni anglash, barkamol avlod tarbiyasini yo'lga qo'yish, olia mustahkamligini ta'minlash, uning faravonligini oshirish, oilada sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirishning muhim omillaridan biridir.

Oilada qizlar tarbiyasi nozik qadriyatdir: o'zbek oilalarning aksariyati o'zining serfarzandligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, ota-onalarning xoh o'g'il, xoh qiz, xoh to'ng'ich, xoh kenja farzand bo'lmasin, ularga teng va odil munosabatda bo'lishi, erkalatmasligi, kattalar namunasi orqali kuchlilikni tarbiyalashi ajobiy xodisadir. Bunday xususiyatlar qizlar uchun alohida ahamiyatga egadir. Qizlarga Sharqona muloqat odobini tarbiyalashda oilada albatta onalar ibrat-namunadir.

Oilalarda qiz bolalari kam bo'lgan ota-onalar, o'z farzandlarini ortiqcha erkalaydilar, qiz bola oilaning tanho ovunchog'iga aylanib qoladi. Natijada shunday qizlar erka, o'jar, tantiq, shaxsiyatparast, kibrli va manman bo'lib voyaga etishi mumkin.

Oilada qat'iy intizom va kun tartibining bo'lishi qiz bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Qiz bolalarning bilim olishdagi yutug'i, axloqi, or-nomusi, ibo-hayosi, tejamkor va oqila bo'lishi, salomatlik darajasi ko'p jixatdan oilada qaror toptirilgan oqilona tuzilgan oila rejimga bog'lik. Shuning uchun ota-onalarning o'zlari ham bu borada ibrat-na'muna ko'rsatishlari darkor. Chunki, u katta bo'lgach, nihol kabi boshqa uyga ko'chib o'tadi – oila quradi.

Oilada qizlar, bo'lajak onalar alohida o'z o'rinlariga ega bo'lishi va oilani boshqarishda yetakchi kuch ekanini unutmasligimiz lozim.

Oila – bu o'ziga xos xo'jalik bo'lib uning turmush kechirish muammolari mavjud. Ota – onalar oila a'zolarning amaliy faoliyatlarini uyushtiradi, ularning ovqatlanish, ta'lim olish, ishlash, dam olish, kiyim bosh bilan ta'minlash kabi kundalik rejimini tashkil qiladi, farzandni qiz bolaligidan boshlab mehnatga tejamkorlikka, ibo-hayoga, or-nomuslilikka, g'urur va mustaqillikka, shaxslararo ibratli munosabatga o'rgatib boradi. O'zbek oilasi a'zolarning deyarli barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz [3].

Oilada ota – fayz-baraka, ibrt timsoli, ona – mehr-muhabbat, tarbiya o'chog'i, frazand esa, go'zal tarbiya merosxo'ridir. Olilada nuroniy bobo va buvilarning borligi to'kin sochinlik, shod-u xurramlik, o'zaro hurmat va totuvlikni mustahkamlaydi. Bunday muhitda voyaga yetgan farzand munosib tarbiya topadi. Oilalar kamoli ozir-oqibat jamiyat farovonligiga munosib hissa qo'shadi. Abdurauf Fitratning "Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydilar, suv idishning shaklini olganidek, baolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar". Ushbu fikrlardan ko'rinib turubdiki, ota-onalar tomonidan berilgan go'zal axloq o'g'il-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

qizlarning tarbiyasigajilo baxsh etadi. Ayniqsa, qizlarning tarbiyasiga onalar mas'ul hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, Temuriy shahzodalarning tarbiyasi asosan ularning momolari zimmasida bo'lgan. Xususan, Saroymulkxonim Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'beklar tarbiyasi bilan shug'ullangan. Qadim o'tmishimizga nazar solsak bu kabi fidoyi ayollarimiz, oqila va dono buvijonlarimiz hamisha oz' bilimi, tajribasi, aqlu zakovati bilan komil o'g'il-qizlarfni jamiyatimizga yetishtirib berganlar [4].

Keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishni inobatga olib, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablar o'quv rejasiga "Tarbiya" fani kiritildi. Bu fanning asosiy mohiyati kichik yoshdan boshlab tarbiya xislatlarini singdirish, o'quvchilarga puxta bilim berish, muvaffaqiyatga erishish motivini kuchaytirish, mehnatsevarlikka o'rgatish, kasbga yo'naltirish, o'zaro hamkorlik qilish, kattalar bilan ijtimoiylashuv jarayoni, milliy qadriyatlarni o'rganish, ajdodlarning boy ilmiy merosidan foydalanish, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish kabi bir qancha vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bugungi kunda yoshlarga o'rtasida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish bugungi ota-ona, o'qituvchi-murabbiy va tarbiyalanuvchilarning burchi hisoblanadi.

Kuzatishlarimiz davomida biz 9-10-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Tarbiya" darsliklarini o'rganib chiqdik. Darsliklarda keltirilgan o'quvchi-qizlarning axloqiy fazilatlari haqidagi ma'lumotlarni jamlab chiqdik. Ma'lumotlar mavzular doirasida kiritilgan. Unda pedagogik ta'sir etish usullari orqali tushuntirib o'tilgan, ibrat-namuna vositasida misollar keltirib o'tilgan. O'rta va yuqori sinflar (9-10-sinf) uchun mo'ljallangan "Tarbiya" darsligida biz tadqiqotimizga taalluqli quyidagi ma'lumotlarni aniqlab chiqdik. O'quvchilarning fazilatlarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, qat'iy fe'l-atvorga erishish uchun to'rt qadam maqsadlar zinapoyasi keltirilgan (1-rasm):



2-rasm. Qat'iy fe'l-atvorga erishish uchun to'rt qadam.

Yuqorida keltirilgan va tavsiya etilayotgan ushbu tavsiya haqiqatdan ham o'quvchilar ongi va tafakkuridagi beqarorlikni oldini olishda muhim ta'sir ko'rsatish usuli sifatida talqin etiladi. Usbhu tavsiya orqali o'quvchi-qizlarning ijtimoiylashuvidagi jarayonlarda axloqiy fazilatlarni egallash o'rni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Belgilangan ushbu maqsadlar orqali hayotda kerakli bo'ladigan puxta bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini tug'diradi [5].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-3

Shuningdek, darslikda keltirlgan “Katta o’zgarishlar qiluvchi kichik odatlar” nomli qismda aytilga gaplar diqqatimizni tortdi: “amalga oshirilgan barcha vazifalarn yozib boring. Shunda natijalardan paydo bo’ladigan xursandchilik ham yuzaga chiqadi. Majburiy harakatlardan voz keching. O’zingizni qiynamaslikka harakat qiling. Harakatni kichik vazifalarni bajarishdan boshlang, rejangizni amalga oshirishdan to’xtamang”. Ana shunday har bir shaxsni harakatga undovchi bu rag’batlantiruvchi so’zlar orqali bugungi kunning o’auvchi-qizlari ham o’zlarida axloqiy fazilatlarni rivojlantiish lozimligini alaohida ta’kidlashimizga yana bir bor sababchi bo’ladi. Chunki bizni harakatga keltiruvchi bu kuch har doim yuksak natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, O‘zbekiston. 2000 y. 32 bet.
3. Pedagogika ensklopediya 1-jild “O`zbekiston milliy ensklopediyasi ”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.: -2015 y
4. N.Ismatova, Z.Zamonov va b. “Tarbiya” (8-sinf). Respublika ta’lim markazi. 2021 yil 15-bet.
5. SH.Sattorov, D.Ro’ziyeva, Z.Islomov va boshq. “Tarbiya”.(9-sinf) “Ozbekiston”, NMIU, 2020 y 65 bet